INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION
ISSN 2181-371X
https://sr-journals.org/index.php/ITSE

KASB TA'LIMI O'QITUVCHISINING PEDAGOGIK MAHORATINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI

D.F.Djalolova-*"YeSMva D" kafedrasi dotsenti,*
pedagogika fanlari nomzodi.

Maqolada kasb ta'limi o'qituvchisining pedagogik mahoratini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi to'g'risida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: *texnologiya, axborotli, kommunikativ, konstruktiv, loyihalash, gnostik, intuitsiya.*

В статье описана методика разработки занятий, направленная на развитие педагогического мастерство преподователей профессионального образования.

Ключевые слова: *технология, информацион, коммуникатив, конструктив, проектирование, гностик,интуиция*

The article is aimed at developing organization methods of the pedagogical skills of a teacher of vocational education.

Key words: *technology, informational, communicative, constructive, design, Gnostic, instuition.*

Jamiyatdagi iqtisodiy-ijtimoiy o'zgarishlar ta'lim tizimini doimiy rivojlantirib borishni talab etadi. Ta'limni rivojlantirishdagi yangicha yondashuvlar shaxsga yo'naltirilgan va rivojlantiruvchi ta'lim paradigmasini shakllantirishga olib keldi. SHaxsga yo'naltirilgan va rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish birinchi navbatda o'qituvchidan yuksak pedagogik madaniyat va mahoratni, yuqori darajadagi kasbiy malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirzieevning «Buyuk kelajakimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz» asarida yoshlarga zamonaviy bilim berish, mustahkam pozitsiyaga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash lozimligi, ularni ma'naviy ma'rifiy sohadagi ishlarni susaytirmay yangi bosqichga ko'tarish zarurligi ta'kidlandi. Hozirgi kunda iqtisodiy yuksalish ishlarini amalga oshirishda, albatta, zamonaviy fikrlaydigan sohasi bo'yicha kuchli bilim va salohiyatga ega yoshlarimizdan umidlar kattadir. Prezidentimiz o'z ma'ruzalarida «Biz taraqqiyotning «o'zbek modeli»ga asoslangan yo'lni qat'iy davom ettirib, mamlakatimizning iqtisodiy qudratini oshirish, jahon maydonida uning raqobatdoshligini ta'minlash, iqtisodiyni modernizatsiya qilishga qaratilgan ishlarni yangi bosqichga ko'taramiz» deya ta'kidlab, iqtisodiy yuksalish albatta sohasi bo'yicha zamonaviy bilimga ega bo'lgan kadrlar, mahsulot ishlab chiqarishda yangi texnologiyalardan foydalanishga diqqat e'tiborni qaratish lozimligi muhim ahamiyatga ega ekanligi muhim ahamiyatga ega ekanligini e'tirof etadilar.

Bugungi kunda bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisini tayyorlashda quyidagi yo'nalishlarda faoliyatlar olib borish muhimdir.

- Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratni shakllantirish uchun ularda informatsion, kommunikativ, konstruktiv, loyihalash, tashkil etish va gnostik malakalarni rivojlantirish.
- Kelajakda har bir o'qituvchi o'zi pedagogik madaniyati hamda mahoratini oshirib va rivojlantirib borish malakalarini shakllantirish.
- Bo'lajak kasb ta'lim o'qituvchilarida pedagogik va axborot texnologiyalarni o'zlashtirish va amalda tadbiq etish malakalarini shakllantirish.

Pedagogik mahorat – o‘qituvchining doimo takomillashtiriladigan va yuksak darajadagi ta’lim va tarbiya berish san’atidir. Pedagogik faoliyat esa ta’lim, tarbiya hamda talabalar faoliyatini boshqarish kabi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi va har birida pedagogik mahorat ko‘rinadi.
Pedagogik mahorat o‘z ichiga bilim va intuitsiyani ilmiy asoslangan boshqaruvli, ta’lim va tarbiya jarayonidagi qiyinchiliklarni engish, talaba shaxsiga hurmat bilan yondashuvni, ijodiy faoliyatni, ilmiy tahlil va tasavvur qilish qobiliyatlarini oladi. Demak pedagogik mahoratni o‘qituvchining ta’lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etish va o‘tkazishdagi faoliyatlari xususiyatlari yig‘indisi sifatida qarash mumkin. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchisini tayyorlash jarayonida ta’lim jarayoni shunday tashkil etilishi kerakki, har bir mashg‘ulotlarda tegishli fan bo‘yicha talabaga egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish bilan bir qatorda ularning pedagogik mahoratlari shakllantirilib borilishi kerak. Ta’lim jarayonida pedagogdan doimo notiqlik san’ati talab etiladi. U faqat o‘quv axborotini etkazish emas, balki dalillar keltirish, isbotlash va ishontirish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim. U auditoriyaga informatsion ta’sir kilishning texnologik jarayonlarini bilishi kerak. Bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik mahoratini shakllantirish va rivojlantirishga yo‘naltirilgan nazariy mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish uchun quyidagilarni tavsiya etiladi: mavzu bo‘yicha o‘rganiladigan eng asosiy masalalar va jihatlarni ajratib olish kerak; nazariy mashg‘ulotni o‘tkazish shaklini aniqlash lozim (ma’ruza, munozara, muammoli yoki boshka shaklida o‘tkazilishi aniqlanadi); mashg‘ulot paytida o‘qituvchi o‘quv materialining mantiqiy bayon etilishiga, mantiqiy vositalardan foydalanish, izohlash, aniqlik kiritish, fikrlash, dalilllar keltirish, misollar, isbotlash va taxlil qilishga e’tibor qaratishi kerak; auditoriya oldida ma’ruza qilganda yoki munozara yuritish jarayonida o‘pni boshqarish, muomala qilish, psixologik vaziyatlarni ajratish, hazil mutoyiba qilish, murojaat qilish qoidasi, ta’lim oluvchilarga muomala qilishning etikaviy usullarga rioya qilish va hamkorlikda faoliyat ko‘rsatish elementlariga e’tibor qaratish lozim; shuni esdan chiqarmaslik kerakki, “bizning ko‘rinishimiz, qanday harakat qilishimiz, qanday gapirishiz va fikr yuritishimiz, o‘zimizni qanday tutishimizga qarab talabalar baholaydilar va fikrlaydilar”. Bu holatlar bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchisida kelajakda uning pedagogik faoliyatini yuritishda ijobiy taassurot qoldirishi kerak. U kelajakda xuddi sizday yuksak pedagogik mahoratga ega pedagogga o‘xshash uchun harakat qilishi kerak.

O‘quv axborotini quyidagi ikki variantda uzatish tavsiya etiladi:
a) o‘quv axboroti aniq konkret materiallar asosida ob’ektiv hodisa yoki holat sifatida uzatiladi;
v) o‘quv axboroti real haqiqat ko‘rinishida taqdim etiladi va isbotlovchi dalil, tezis, argument yoki illyustratsiyaga asoslanadi yoki g‘oya sifatida uzatiladi. Dalillar, namunalar, tajribalarning ijtimoiy ahamiyati yoritib berilishi kerak.

Auditoriyani jalb qilish uchun o‘qituvchi fikrini to‘g‘ri, tushunarli va aniq bayon qilishi, vaqtga rioya qilishi, talabalarga hurmat bilan qaratishi lozim. O‘qituvchi nutqi to‘g‘ri qabul qilinishi uchun tovushiga ham e’tibor qaratishi; ma’ruzani 30 minutdan ortiq vaqtga rejalashtirmaslik; mavzuga xos muammoli savollar va topshiriqlar bilan suhbatlar yoki munozaralar uyushtirish orqali ta’lim oluvchilarni har 20-30 minutda faollashtirishga harakat qilishi; faollashtirish orqali talabalarning mustaqil va erkin fikrlash qobiliyatlari rivojlantirilib borish kasb ta’limi o‘qituvchisini tayyorlashda juda muhim hisoblanadi. Nazariy mashg‘ulotga tegishli asosiy tushunchalar, ta’riflar, qoidalar bo‘yicha yozma konspekt tayyorlash, sohaga yoki fanga tegishli bo‘lmagan maxsus terminlarni ishlatmaslik; ma’ruza davomida ta’lim oluvchilarni qiziqtirishga e’tibor qaratish lozim. Ma’ruzani dalillar, sitatalar, mavzuga oid hayotiy tajribalar bilan boshlash, ma’ruza yakunida o‘quv axborotini xulosalash, ta’lim oluvchilarni rag‘batlantirish, turli misollar va rivoyat keltirish muhimdir. SHuni esdan chiqarmaslik kerak “Eng yaxshi ma’ruza yaxshi boshlanishi va tugallanishiga bog‘liq bo‘ladi. Ikkala bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lishi lozim.

Seminar va amaliy mashg‘ulotlar bo‘lajak o‘qituvchilarda analitik, informatsion, kommunikativ, loyihachilik, gnostik va boshqa pedagogik ko‘nikma va reflektiv qobiliyatlarni rivojlantirish, bo‘lajak ularning pedagogik mahoratini takomillashtirish yo‘llari va vositalari haqida tasavvurlarni shakllantirish; o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish bo‘yicha pedagogik texnikani egallash sharoitlarini

yaratish; boshqa shaxslar bilan o‘zaro muomala madaniyatini shakllantirish; talabalar va o‘qituvchilar bilan ijodiy hamkorlik munosabatini o‘rnatish va amaliyotda qo‘llash imkoniyatlarini yoritishga yo‘naltirilgan holda tashkil etiladi.Amaliy va seminar mashg‘ulotlarni muammoli o‘qitish texnologiyasi asosida tashkil etish tavsiya etiladi. Bugungi kunda muammoni o‘qitish texnologiyasiga asoslangan seminarlar va amaliy mashg‘ulotlar yaxshi pedagogik samara bermokda. Seminar mashg‘ulotida o‘quv faoliyatini tashkil kilish shaklida va o‘qitish metodikasida muammoli vaziyatlar shakllantiriladi. Mashg‘ulotlarda talabalar faoliyati muammoli vaziyatlarni hal qilishga qaratiladi. Bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash esa mustaqil ish topshiriqlarini bajarish orqali amalga oshiriladi. Amaliy mashg‘ulotlar va seminarlarda asosiy e’tibor talabalarning turli manbalar bilan ishlash malakalarini va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, o‘qituvchilarning ilg‘or pedagogik tajribalarini tahlil qilish va umumlashtirish, muammoni aniqlash va uni hal qilish yo‘llarini topish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilishi kerak. Alohida seminarlar ilmiy-amaliy konferensiya, o‘quv-uslubiy va ilmiy seminar, davra suhbati ko‘rinishlarida olib borilishi mumkin. Bunday seminarlar mavzulari ta’lim muassasalari kengashlarida tasdiqlanadi. SHuningdek, bo‘lajak kasb ta’lim o‘qituvchilarining pedagogik mahoratini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan seminar va amaliy mashg‘ulotlar rolli o‘yinlar, munozara, trening metodlarini qo‘llab o‘tkazish tavsiya etiladi. Amaliy yoki seminar mashg‘ulotiga tayyorgarlik quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1.Nazariy bosqich - bu bosqichga o‘quv adabiyotlari bilan tanishish, mavzuga oid asosiy tushunchalarni yozib olish, referat va boshqa materiallarni tayyorlash kiradi.

2. **Nazariy-amaliy bosqichi -** bu bosqichga nazariy bilimlarni daliliy materiallar bilan boyitishga yordam beradi. Talaba seminar mashg‘uloti natijalarini video fragment ko‘rinishida, ma’lumotnoma yoki annotatsiya shaklida yozib boradi, diagramma va jadvallar tuzadi.

3.Taqdimot bosqichi-talabalarga auditoriya oldida chiqish va o‘z fikrini bayon etishga imkon beradi.

4. Analitik bosqich– talabalar amaliy yoki seminar mashg‘ulotidagi metodikani tahlil qilishni o‘rganadilar.

Trening – bu shaxsning xulqi va faoliyatini boshqaruvchilik qobiliyatini takomillashtirish usulidir. **Trening maqsadi** – bu bo‘lajak o‘qituvchining ijtimoiy psixologik dunyoqarashini kengaytirish, talabalar bilan o‘zaro muloqot va muomala madaniyatini rivojlantirishdir. Trening mashg‘ulotlarini tashkil qilishda pedagogik bilim va amaliy harakatlar birligiga tayaniladi. Trening talabalarda bilim olish va undan foydalanish bo‘yicha ma’lum bir amaliy ko‘nikmalarni shakllantiradi. Trening mashg‘ulotlarida birinchidan bilimlar uzatiladi va uni amalda qo‘llashga imkon yaratiladi, ikkinchidan ma’lum darajada amaliy ko‘nikma shakllanadi, uchinchidan – maqsadni va mazmunini tushunish bilan bir qatorda bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik mahorati rivojlantiriladi. Trening mashg‘ulotlari rivojlantiruvchi ta’limga asoslanadi va turli guruhiy shakllarda olib boriladi. Trening mashg‘ulotlarining asosiy xususiyatlariga quyidagilar kiradi: gurux ishtirokchilari soni 10 kishidan oshmasligi kerak; shaxsning sifatlarini rivojlantirish, hamda mavzu bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni egallashga yo‘naltiriladi; talabalarning bir-biri bilan yaxshi munosabatlarini rivojlantiriladi, mustaqil fikrlash, o‘zaro muhokama qilish, qobiliyatlar rivojlantiriladi; ishtirokchilarning o‘zaro erkin muomala va munosabati, psixologik xavfsizlik yuzaga keltiriladi.

Trening mashg‘ulotlari quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

O‘zaro muloqot (dialog). SHaxslar orasida teng huquqli muloqot va hurmat o‘rnatiladi.

Teskari aloqa. Trening davomida bir ishtirokchining boshqa ishtirokchidan harakatlari natijasi bo‘yicha uzluksiz axborot olinadi. Mashg‘ulotda teskari aloqa topshiriqni bajargandan keyin amalga oshadi va real vaziyatlarga bog‘liq bo‘ladi.

Ijodiy-izlanuvchanlik. Ishtirokchining shaxsiy kasbiy fazilatla-rining namoyon bulishi, mustaqil ijodiy faoliyat ko‘rsatish nazarda tutiladi.

Intellektual va emotsional. Trening ishtirokchisining intellektual va emotsional holatiga e’tibor qaratiladi.

Erkin ishtirok. Har bir ishtirokchiga topshiriqni bajarishdagi ishtirok qilishini tanlash huquqi beriladi. Masalan, agar ishtirokchi o‘zining xohishiga qarab, masalan kayfiyati yo‘q bo‘lsa yoki

boshqa muammoli va mojaroli vaziyatlar yuzaga kelsa topshiriqni bajarmasligi yoki mashg‘ulotni o‘tkazib yuborishi mumkin. Bu faqat ba’zi holatlarda bo‘lishi mumkin.

Real holat tahlili. Auditoriya doirasidan chiqmasdan shaxsning real harakatlari tahlil qilinadi. Fikr erkinligi. Har bir ishtirokchi o‘z nuqtai nazarini bayon qilish huquqiga ega bo‘ladi. **Faollashtirish.** Har bir talabaning guruhiy jarayonga ishtirok etishga jalb qilish faol ishtirokini ta’minlash. **Motivatsiya.** Talabalarni trening mashg‘ulotlariga, o‘z navbatida topshiriqlarni bajarish jarayoniga qiziqtirish. O‘quv materialini o‘zlashtirishga motivatsiya uyg‘otish. **Nazariya va amaliy birligi.** Trening mashg‘ulotlarida olingan nazariy bilimlar topshiriqlarni bajarish davomida amaliy ko‘nikmalarga aylantiriladi. Trening mashg‘ulotlarida ushbu tamoyillar joriy qilinishida quyidagi qoidalarga rioya qilish tavsiya etiladi: talabalarning faol ishtiroki ta’minlanishi; har bir ishtirokchi o‘z nuqtai nazarini aytish huquqiga ega; har bir bildirilgan fikrni qo‘llab quvvatlash huquqi bo‘ladi; so‘zni bo‘lmasdan eshitish ma’suliyati; barcha jarayonlarga faol qatnashish; ishni boshidan oxirigacha harakatda bo‘lish; hozir bo‘layotgan hodisalar yoki jarayonlar to‘g‘risida shaxsan o‘z fikr mulohazasini bildirish.

Trening mashg‘ulotlarini quyidagi bosqichlarda amalga oshirish tavsiya etiladi: **Trening maqsadini aniqlash.** Mashg‘ulotga tayyorgarlik o‘quv maqsadini belgilashdan boshlanadi. Trening maqsadi aniq va tushunarli qo‘yilishi, o‘qituvchi mashg‘ulot maqsadiga erishish uchun mashg‘ulot davomida egallanadigan bilim va ko‘nikmalar mohiyati keltiriladi. **Treningni loyihalash.** Mashg‘ulot mazmuni o‘z ichiga bilim, ko‘nikma, kadriyatlar sohalarini oladi. SHuningdek, bo‘lajak o‘qituvchining jismoniy, emotsional, intellektual va ruhiy sifatlari bog‘liq bo‘ladi. Agar har bir shaxsiy fazilatlarga e’tibor bersak, treningda jismoniy faoliyatda talabaning emotsional zo‘riqishni chiqarish uchun ma’lum psixogimnastik mashqlarni bajarish orqali talabalarni aqliy faoliyat bilan bir katorda jismoniy faoliyat ko‘rsatishini nazarda tutiladi. Trening emotsional zo‘riqishdan ozod qiladi, har qanday trening talabalarning intellektual ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yo‘naltiriladi. SHuningdek, trening mashg‘ulotlari talabalarning o‘zaro hamjihatligida, har biri o‘zining fikrini aytish muhitida o‘tkaziladi. Bular xammasi bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchisining pedagogik mahorati va ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Trening mashg‘ulotida topshiriqlar butun guruh, kichik guruh yoki alohida har bir talaba uchun tanlanish mumkin. Topshiriqlarni bajarish jarayonini tashkil etish uchun topshiriq maqsadi aniqlanadi, topshiriqni bajarish uchun aniq ko‘rsatma va yo‘riqnomalar beriladi. Treningda qo‘llaniladigan metodlar talabalarda erishilishi lozim bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish bilan bir qatorda ularda shaxsiy fazilatlarni, pedagogik mahoratlarni va ijodiy ishlash faoliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilishi kerak. Trening mashg‘ulotlarida munozara, rolli o‘yinlar, loyiha, psixogimnastika, muammoli vaziyatlar, ijodiy topshiriqlar metodlarini qo‘llash tavsiya etiladi. Trening yakuniy bosqichida har bir talabaning mashg‘ulot davomida o‘quv maqsadiga erishganligi, uning shaxsiy sifatlarining rivojlanganligi baholanadi. Mashg‘ulot natijalarini baholash mezonlariga kuyidagilarni kiritish mumkin:

Muvaffaqiyatlilik – treningda belgilangan o‘quv maqsadiga erishganlik darajasi;

Samaradorlik-talabaning qaysi shaxsiy sifat va fazilatlarining rivojlanishidagi o‘zgarishlar;

Unumdorlik – eng yaxshi natijalarga erishilganlik.

Agar yuqoridagi metodik tavsiyalar asosida mashg‘ulotlar tashkil etilsa bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarning pedagogik mahoratlarini shakllantirish va rivojlantirib borish imkoniyati yaratiladi.

Adabiyotlar

1. Saidova Kh.Kh, Djalolova D.F. Teaching special subjects on the basis of innovative education technologies as a pedagogical problem. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD) Indiya,Volrume-5, Issue 10, 2020, p 328-330.
2. Saidova Kh.Kh. Kuliyeva D.R. Djalolova D.F. "Cluster" Theory And Its Peculiarities In Increasing The Competitiveness Of The Economy. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research AQSh,Volrume 2, Issue 9, 2020, p 51-54.
3. Tursunova Z.N.,Dilafruz Fattoxovna Djalolova. Innovative activity of teacher.Thematics journal of Education. 2021. 295-306.